**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I. Muxamedov
______________________
2024-yil “___” ____________

# IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA
# O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika |
| Ta’lim sohasi: | 530 000 – Fizika va tabiiy fanlar |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60530200 – Geografiya |

**Chirchiq- 2024**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/Modul kodi<br>II1206</td><td>O‘quv yili<br>2024-2025</td><td>Semestr<br>2</td><td colspan="2">ECTS-Kreditlar<br>6</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/Modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek/rus</td><td colspan="2">Xaftadagi dars soatlari<br>6</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya</td><td>90</td><td>90</td><td>180</td></tr>
</table>

**2.** **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga tabiat qonuniyatlarini hisobga olgan holda iqtisodiyot va ijtimoiy hayotni hududiy tashkil etish, aholi, ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining joylashish xususiyatlari va unga ta’sir etuvchi omillar haqida umumiy tushuncha hosil qilish, fanning tarkibiy tuzilishi; uning asosiy qismlari mohiyati, tarixi to‘g‘risida dastlabki bilimlarni berishdir.

Fanining vazifasi – talabalarga iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning mazmuni, zamonaviy tuzilishi, maqsad va vazifalari, ilmiy va amaliy ahamiyati, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish sohasida jahon tajribalarida erishilgan yutuqlar, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy-ijtimoiy geografik muammolarini o‘rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu: Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot ob’ekti va predmeti**

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni. Uning boshqa fanlar bilan aloqalari. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Fanning asosiy mazmuni. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning ichki tuzilishi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot ob’ekti va predmeti bo‘yicha geograf olimlarning turlicha qarashlari. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning maqsad va vazifalari.

**2-mavzu: Fanning tadqiqot usullari**

Tadqiqot usuli haqida umumiy tushuncha. Geografik taqqoslash usuli. Tarixiy usul. Geografik tadqiqotlarda kartografik usulning roli. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada matematik-statistik usullar. Rayonlashtirirish, kuzatish, modellashtirish, anketa-so‘rov, ekstrapolyasiya, tizim-tarkib usullari va ularning iqtisodiy va ijtimoiy geografik muammolarni o‘rganishdagi roli.

| | |
|---|---|
| | **3-mavzu: Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning shakllanishi**<br>Geografik hodisalar va jarayonlarni tushuntirishga bo'lgan ilk urinishlar. Geografiya fanining rivojlanish bosqichlari. Buyuk geografik kashfiyotlar. O'rta Osiyo olimlarining geografiyani rivojlanishiga qo'shgan hissasi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning klassik g'oyalari. O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanini rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar.<br><br>**4-mavzu: Hududiy mehnat taqsimoti. Hududiy ishlab chiqarish majmualari**<br>Hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili. Dastlab hududiy (xalqaro) mehnat taqsimoti asoschilari A.Smit va D.Rikardo. Hududiy mehnat taqsimotining turli darajalari, bosqichlari. Hududiy mehnat taqsimoti xususiyatlari.<br>Hududiy ishlab chiqarish majmualari tushunchasi va uning amaliy ahamiyati. N.N.Kolosovskiyning g'oyalari. Hududiy ishlab chiqarish majmualarining funksional tiplari va klassifikatsiyasi. Energiya ishlab chiqarish sikllari. Hududiy ishlab chiqarish majmualarining iqtisodiy jihatdan samaradorligi.<br><br>**5-mavzu: Iqtisodiy rayonlashtirish va ixtisoslashuv**<br>Xalq xo'jaligini boshqarishning hududiy tamoyillari. Rayon tushunchasi. Iqtisodiy rayonlashtirish prinsiplari. Iqtisodiy rayonlarning shakllanishi. Real geografik va ma'muriy boshqaruv rayonlari.<br><br>**6-mavzu: Iqtisodiy geografik o'rin.**<br>Geografik o'rin tushunchasi, uning turlari. Iqtisodiy geografik o'rin, siyosiy geografik o'rin. Iqtisodiy geografik o'rinning mintaqalar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri. Iqtisodiy geografik o'rinning qulay yoki noqulayligini baholash.<br><br>**7. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari.**<br>Ishlab chiqarishning ijtimoiy shakllari: konsentratsiya (mujassamlashuv), ixtisoslashuv, kooperatsiya, kombinatsiya.<br><br>**8-mavzu: Urbanizatsiya**<br>Urbanizatsiya jarayonlari va uning hududiy xususiyatlari. Shaharlar geografiyasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning eng muhim tarmog'i ekanligi. Urbanizatsiyaning hududiy jihatlari. Shaharlar geografiyasini o'rganishdagi bosqichlar. Shaharlarning funksiyalari. Shahar va qishloq joylarida aholi sonining o'sish xususiyatlari. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari. O'zbekistonda urbanizatsiyani geografik o'rganish.<br><br>**9-mavzu: Aholi geografiyasi va demografiya**<br>Aholi geografiyasining tuzilishi. Aholi geografiyasining muhim tushunchalari. Aholi dinamikasi. Aholi takror barpo bo'lishining an'anaviy |

tipi. Demografik jarayonlar va ularning asosiy xususiyatlari. Demografik portlash fenomeni. Aholi takror barpo bo'lishining zamonaviy tipi.

**10-mavzu. Madaniy makon (madaniyat geografiyasi). Sotsial geografiya. Tibbiyot geografiyasi**

Madaniyat mintaqaning muhim xarakteristikalaridan biri sifatida. Tillar geografiyasi. Dinlar geografiyasi. Madaniyat geografiyasi va aholi. Yer shari aholisining etnik tarkibi. O'zbekiston aholisining etnik tarkibi. Jahonning yirik xalqlari. O'rta Osiyoning madaniy makoni.

Sotsial geografiyaning tadqiqot obekti va predmeti, fanlar tizimida tutgan o'rni. Sotsial geografiyaning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari. Sotsial geografiyaning tarmoqlari. Tibbiyot geografiyasi. Ta'lim geografiyasi va O'zbekiston ta'lim tizimi. Sog'liqni saqlash geografiyasi. Jinoyatchilik geografiyasi. Turizm geografiyasi. Rekreatsiya resurslari. Xalqaro turizm. Sotsial geografiyaning muhim vazifalari va muammolari.

Tibbiyot tizimi – tibbiyot geografiyasining tadqiqot obyekti sifatida. Tibbiyot geografiyasining fanlar tizimida tutgan o'rni. Tadqiqot obyekti va predmeti. Fanlararo bilan aloqasi. Zamonaviy tibbiyot tizimining tuzilishi va rivojlanishi. Nozogeografiya. Aholining tibbiy xizmatga bo_lgan ehtiyojlari, uning turlari va qondirilishi darajasi.

**11-mavzu: Siyosiy geografiya**

Siyosiy geografiya, uning ob'ekti va predmeti. Siyosiy geografiyaning ijtimoiy-geografik fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqalari. Siyosiy geografiyaning shakllanish xususiyatlari va bunda g'arb olimlarining xizmatlari. Siyosiy geografiyaning tuzilishi. Siyosiy geografiya va geosiyosat, Ularning o'zaroaloqadorligi va rivojlanish xususiyatlari.

**12-mavzu. Inson va tabiat o'zaro ta'siri haqida yondashuvlar va mintaqaviy tadqiqotlar.**

Tabiiy sharoit haqida tushuncha. Tabiiy shart-sharoitlarning insonlar hayoti va xo'jalik faoliyatiga ta'siri. Tabiiy resurslarning asosiy turlari va ularning klassifikatsiyasi. Qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan resurslar. Tabiiy resurslarga iqtisodiy baho berishning nazariy asoslari. Landshaftlar va ularni iqtisodiy geografik o'rganish.

**13-mavzu: O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanishi**

O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar: Z.M.Akramov, O.B.Atamirzayev, A.S.Soliyev, A.A.Qayumovlarning ilmiy merosiva ilmiy maktablari.

**14-mavzu. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning zaruriyati, tamoyillari va dastaklari**

Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning o'rni;

| | |
|---|---|
| | “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari; “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish yo‘nalishlari. Resurslarning cheklanganligi va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zaruriyati; “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish tamoyillari; “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish siyosatining dastaklari; “Yashil iqtisodiyot”ning axborot resurslari va “yashil iqtisodiyot” uchun inson kapitalini rivojlantirish. Jahon mamlakatlarida “yashil o‘sish”ni ta’minlash modellari va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning xorij tajribasi.<br><br>**15-mavzu. O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari**<br>O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi: zaruriyati, maqsadi, tamoyillari va vazifalari; Mamlakat iqtisodiyotining energiya samaradorligini oshirish yo‘nalishlari; Tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirish istiqbollari; Iqlim o‘zgarishlari oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yo‘llari; “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish. Qishloq xo‘jaligini “yashil iqtisodiyot” asosida rivojlantirish muammolari. O‘zbekistonda “yashil energetika”ni rivojlantirish istiqbollari.<br><br>**III. Amaliy mashg‘ulotlarni bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**<br>Amaliy mashg’ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.<br>1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni. Fanning maqsadi va vazifalari.<br>2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning ichki tuzilishi.<br>3. Fanning tadqiqot usullari.<br>4. Geografik taqqoslash usuli<br>5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning shakllanishi<br>6. O‘zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanini rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar.<br>7. Hududiy mehnat taqsimoti<br>8. Hududiy ishlab chiqarish majmualari.<br>9. Iqtisodiy rayonlashtirish<br>10. Ixtisoslashuv jarayonlarini o’rganish<br>11. Iqtisodiy geografik o‘rin.<br>12. Iqtisodiy geografik o‘rinning qulay yoki noqulayligini baholash.<br>13. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari<br>14. Kooperatsiya va kombinatsiyalarni tahlil qilish<br>15. Shaharlashuv jarayonlari o’rganish.<br>16. Shaharlarning funksiyalarini tahlil qilish<br>17. Aholi geografiyasi va demografiya<br>18. Demografik jarayonlar va ularning asosiy xususiyatlari<br>19. Madaniy makon (madaniyat geografiyasi)<br>20. Ijtimoiy va sotsial geografiya |

21. Siyosiy geografiya
22. Siyosiy geografiyaning shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar
23. Tabiat va insonning o'zaro ta'siri
24. Mintaqaviy tadqiqotlarda landshaftlar va resurslarning o'rganilishi.
25. O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanishi
26. Z.M.Akramov, O.B.Atamirzayev, A.S.Soliyev, A.A.Qayumovlarning ilmiy merosiva ilmiy maktablari
27. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning zaruriyati, tamoyillari va dastaklari
28. Jahon mamlakatlarida "yashil o'sish"ni ta'minlash modellari
29. O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari
30. Qishloq xo'jaligini "yashil iqtisodiyot" asosida rivojlantirish istiqbollari

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot ob'ekti va predmeti bo'yicha geograf olimlarning turlicha qarashlari.
3. O'rta Osiyo olimlarining geografiyani rivojlanishiga qo'shgan hissasi.
4. Hududiy mehnat taqsimoti xususiyatlari.
5. Energiya ishlab chiqarish sikllari.
6. Iqtisodiy rayonlarning shakllanishi.
7. Geografik o'rin tushunchasi, uning turlari.
8. Iqtisodiy geografik o'rinning mintaqalar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri.
9. Urbanizatsiya jarayonlari va uning hududiy xususiyatlari.
10. Shaharlarning funksiyalari.
11. O'zbekistonda urbanizatsiyani geografik o'rganish.
12. Demografik jarayonlar va ularning asosiy xususiyatlari.
13. Dinlar geografiyasi.

| | |
|---|---|
| | 14. Yer shari aholisining etnik tarkibi.<br>15. Jahonning yirik xalqlari.<br>16. Tibbiyot geografiyasi.<br>17. Sog'liqni saqlash geografiyasi.<br>18. Jinoyatchilik geografiyasi.<br>19. Eng yangi davr geografiyasining asosiy xususiyatlari.<br>20. Aholining tibbiy xizmatga bo_lgan ehtiyojlari, uning turlari va qondirilishi darajasi.<br>21. Siyosiy geografiyaning ijtimoiy-geografik fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqalari.<br>22. Insonning atrof muhitga ta'siri va tabiatni muhofaza qilishning zarurligi.<br>23. Ekologiya, uning iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bilan aloqasi, asosiy vazifalari.<br>24. Iqlim muammolari bo'yicha halqaro kelishuvlar.<br>25. Tabiiy resurslarning asosiy turlari va ularning klassifikatsiyasi.<br>26. Landshaftlar va ularni iqtisodiy geografik o'rganish.<br>27. "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish yo'nalishlari.<br>28. "Yashil iqtisodiyot"ning axborot resurslari va "yashil iqtisodiyot" uchun inson kapitalini rivojlantirish.<br>29. Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish istiqbollari<br>30. Qishloq xo'jaligini "yashil iqtisodiyot" asosida rivojlantirish muammolari. |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>- iqtisodiy geografiyaganing nazariy asoslarini;<br>- ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari, omillari va usullarini;<br>- jahon xo'jaligining tashkil topishi, ayrim guruh mamlakatlarini xo'jaligini; - halqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy aloqalar va integratsiya jarayonlarini;<br>- mamlakatlar va mintaqalarning geografik o'rniga, tabiiy sharoit va resurslariga iqtisodiy – geografik baho berish;<br>- mamlakatlar xo'jaligining tarmoqlararo va hududiy tarkibini aniqlay olish ***bilimga;***<br>- geografik fanlari tizimiga kiruvchi fanlarni guruhlay olish. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining rivojlanishidagi asosiy bosqichlarni aniqlash;<br>- ishlab chiqarish jarayoni nimalardan iborat ekanligini aniqlash ***ko'nikmasiga;***<br>- ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari-kooperatsiyalashuv, kombinatlashuv, ixtisoslashuvni o'rganish;<br>- ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va qaysi omil ustun ekanligini aniqlash; |

| | |
|---|---|
| | - O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida infratsrukturaning o‘rni va axamiyatini aniqlash;<br>- ijtimoiy geografiyaning zamonaviy tizimini o‘rganish va tarmoqlarini aniqlash ***malakasiga ega bo‘lishi kerak.*** |
| **4.** | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari.**<br>- ma’ruzalar;<br>- interfaol keys-stadilar;<br>- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>- guruhlarda ishlash;<br>- taqdimotlarni qilish;<br>- individual loyihalar;<br>- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| **6.** | **VIII. Asosiy adabiyotlar**<br>1. Soliyev A.S. va boshq., Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Toshkent: “Noshir”. 2019. -512 b.<br>2. Abdalova Z. Tojiyeva Z. Iqtisodiy geografiya. –T.: "Iqtisod-moliya"2019<br>**IX. Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>3. Ваҳобов Ҳ., Тиллабоева М. Иқтисодий география асослари. –Т.: — Ўқитувчи, 2001. -136 б.<br>4. Назаров М.И., ТожиеваЗ.Н. Ижтимоий география. -Т.: Университет, 2003.<br>5. Солиев А., Маҳамадалиев Р. Иқтисодий география асослари. –Т.; —Ўзбекистон, 1996. -70 б.<br>6. A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev va boshqalar. Yashil iqtisodiyot Darslik. / T.: “Universitet”, 2020. – 262 b.<br>7. А.Сконин. Введение в экономическую географию. М.: 2003.<br>7. Боранский Н.Н. Научные принципы географии. Избранные труды. М.: Изд. «Мысль». 1980.<br>8. Мироненко Н.С. Введение в географию мирового хозяйства» М.1995.<br>9. Перцик Е.Н. Города мира. География мировой урбанизации. М. «Лицей». 1999.<br>**Axborot manbalari:**<br>10. www.devedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi rasmiy sayti. |

| | |
|---|---|
| | Statistika agentligi rasmiy sayti.<br>12. www.cspu.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rasmiy sayti.<br>13. www.unilibrary.uz – O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi<br>14. www.lib.cspu.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti kutubxona web sayti.<br>15. www.geografiya.uz – Geografiya sohasiga qiziquvchilar uchun ilmiy-ommabop sayt. |
| **7.** | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil "29" avgust dagi qarori bilan tasdiqlangan.** |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>J.A.Namozov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.f.d. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>F.T.Rajabov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti dekani, g.f.f.d. dotsent.<br>N.I.Safarova – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi dotsenti, g.f.n. |